ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 8 СОН

# ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 9, НОМЕР 8

# LOOK TO THE PAST

VOLUME 9, ISSUE 8

ТОШКЕНТ-2026

ЎТМИШГА НАЗАР | ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ | LOOK TO THE PAST
№8 (2026) DOI http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2026-8

**Бош муҳаррир:**
**Главный редактор:**
**Chief Editor:**

**Муртазаева Рахбар Хамидовна**
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

**Бош муҳаррир ўринбосари:**
**Заместитель главного редактора:**
**Deputy Chief Editor:**

**Джураева Нилуфар Далибаевна**
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**
*тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик, Ўзбекистон Миллий университети*

**Бобожонова Дилором Бобожонова**
*тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон жаҳон тиллари университети*

**Юнусова Хуршида Эркиновна**
*тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети*

**Аширов Адҳам Азимбаевич**
*тарих фанлари доктори (DSc), профессор, ЎзР. ФА. Тарих институти*

**Агзамова Гулчехра Азизовна**
*тарих фанлари доктори (DSc), профессор, ЎзР. ФА. Тарих институти*

**Бурдиашвили Майя**
*тарих фанлари доктори (DSc), Телави давлат университети*

**Кожакеева Ляззат Темировна**
*тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Хотин-қизлар давлат педагогика университети*

**Аминова Азиза Марксовна**
*тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Навоий давлат педагогика институти*

**Ульжаева Шохистахон Мамажоновна**
*тарих фанлари доктори (DSc), Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети*

**Худайқулов Тулқин Дўстбобоевич**
*Тарих фанлари доктори (DSc) Шаҳрисабз далат педагогика институти*

**Ғоффоров Шокир Сафарович**
*тарих фанлари доктори (DSc), профессор Самарқанд давлат университети*

**Эргашева Юлдуз Алимовна**
*Тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Қарши давлат техника университети*

**Халикова Раҳбар Эргашевна**
*тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Тошкент давлат техника университети*

**Ишанходжаева Замира Райимовна**
*тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети*

**Эшов Боходир Жўраевич**
*тарих фанлари доктори (DSc), профессор Қарши давлат университети*

**Маҳкамова Надира Рахмановна**
*тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Тошкент ахборот технологиялари университети*

**Кебадзе Мадонна**
*тарих фанлари доктори (DSc), Телави давлат университети*

**Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна**
*тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Нукус давлат педагогика институти*

**Мустафаева Нодира Абдуллаевна**
*тарих фанлари доктори (DSc), Ўзбекистон Фанлар академияси*

**Ерметов Аваз Абдуллаевич**
*тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети*

**Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович**
*тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Андижон давлат университети*

**Рашидов Ойбек Расулович**
*тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети*

**Расулов Абдуллажон Нуриддинович**
*тарих фанлари доктори (DSc), профессор Наманган давлат университети*

**Ковалев Борис Николаевич**
*тарих фанлари доктори (DSc), профессор Санкт-Петербург Тарих институти*

**Кобзева Ольга Петровна**
*тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети*

**Ауанасова Алима Мусировна**
*тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Қозоғистон давлат тарихи институти*

**Бегалинова Калимаш Капсамаровна**
*фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор, Қозоғистон Миллий университети*

**Хайдаров Муродилла Махмуталиевич**
*тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети*

**Тожибоев Музаффар Турдибоевич**
*тарих фанлари доктори (DSc), профессор, ИИВ Академияси*

**Алиева Лале**
*тарих фанлари доктори (DSc), Озарбайжон давлат университети*

**Саипова Камола Давлятaлиевна**
*тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Ўзбекистон Миллий университети*

**Исмаилова Алмаз**
*тарих фанлари доктори (DSc), Доғистон мустақил университети*

**Иноятова Диларам Маниглиевна**
*Тарих фанлари доктори (DSc), профессор Ўзбекистон Миллий университети*

**Таниева Гулдона Мамановна**
*тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогока университети*

# ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ | РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ | EDITORIAL TEAM:

**Дорошенко Татьяна Ивановна**
*тарих фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Миллий университети*

**Бабаджанова Нодира Абдуллаевна**
*тарих фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети*

**Ширванова Тарана Амирага кызы**
*тарих фанлари номзоди, доцент, Азербайджон давлат иқтисодиёт университети*

**Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич**
*тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Гулистон давлат педагогика институти*

**Нуруллаева Шоира Кушназаровна**
*тарих фанлари номзоди, доцент, Урганч давлат университети*

**Курбанов Бахтияр Журабаевич**
*тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Наманган давлат университети*

**Хакимова Шоира Сағдуллаевна**
*тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), UBS Тошкент филиали*

**Толибоева Нодира Одилжоновна**
*тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон жаҳон тиллари университети*
***Масъул котиб***

**Теймураз Ахалмосулишвили**
*тарих фанлари номзоди, профессор, Телави давлат университети*

**Джоробекова Айнур Эшимбековна**
*тарих фанлари номзоди, профессор, Қозоғистон дипломатия академияси*

**Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна**
*тарих фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Миллий университети*

**Исаков Бахадир Нигматуллаевич**
*тарих фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети*

**Холмуродов Дилшод Рашидович**
*тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Жиззах давлат педагогика университети*

**Юсупов Ахмеджон Шоназарович**
*тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доценти Urganch davlat universiteti*

**Тиллахжаева Хуршида Джумаваевна**
*тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Тошкент давлат техника университети*

**Одилов Аброр Анварович**
*тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Ўзбекистон Миллий университети*
***Масъул котиб***

**Исоқов Бахтиёр Робиддинович**
*тарих фанлари номзоди, доцент, Наманган давлат университети*

**Тўхтабаев Аъзамжон Шарипхўжаевич**
*тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Наманган давлат университети*

**Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич**
*тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Наманган давлат университети*

**Алимардонов Отабек Кудратович**
*тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доценти Ўзбекистон Миллий университети*

**Хасанова Нодира Ибрагимовна**
*тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доценти, Денов тадбиркорлик ва педагогика институти*

**Турсунова Юлдуз Бобокуловна**
*тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), ЎзР. ФА. Тарих институти*

**Азаматова Гулмира Байирбековна**
*тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Jizzax davlat pedagogika universiteti*

**Каримжонов Жасурбек Мухторжонович**
*тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Миллий университети*

Page Maker | Верстка | Са ,ифаловчи: Xurshid Mirzaxmedov

**Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz**
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz**
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

# МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

**1. Надира Махкамова**
СОВЕТ ҲОКИМИЯТИ ЎРНАТИЛГАНИДАН КЕЙИН ТУРКИСТОНДА ЖАМИЯТ ИЖТИМОИЙ ТУЗИЛМАСИ ТРАНСФОРМАЦИЯСИ……………………………………….5

**2. Ollabergan Allaberganov**
1945–1960-YILLARDA XORAZM VILOYATI QISHLOQLARIDA MAKTABGACHA TARBIYA TIZIMIDAGI MUAMMO VA ZIDDIYATLAR……………………………………13

**3. Zaxra Mirzayeva**
K.P. FON KAUFMAN MA’MURIYATINING ILK KO‘RGAZMA TASHABBUSLARI……….17

**4. Akmal Mengliboyev**
SOVET HOKIMIYATI O‘RNATILISHI ARAFASIDAGI JANUBI-SHARQIY BUXORODA VAZIYAT……………………………………………………………………………………..23

**5. Xushnudbek Mamadaliev**
XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARIDA FARG‘ONA VODIYSI SHAHRLARIDAGI DEMOGRAFIK O‘ZGARISHLAR……………………………………….28

**6. Xosiyat Nafiddinova**
MDH DAVLATLARIDA MILLATLARARO MUNOSABATLARNING TARIXIY-ETNOGRAFIK ASOSLARI VA ZAMONAVIY TADQIQOT YO‘NALISHLARI……………...35

**7. Бекзод Пайзуллаев**
БУХОРО АМИРЛИГИ ВА ҚЎҚОН ХОНЛИГИНИНГ ЖИЗЗАХ, ЎРАТЕПА ВА ХЎЖАНД УЧУН КУРАШЛАРИ ТАРИХИ БЎЙИЧА МУЛОҲАЗАЛАР………………………………….39

**8. Mo‘minjon Salayev**
BAQTRIYA HUJJATLARIDA AYOLLARNING HUQUQIY VA IJTIMOIY MAQOMI (IV – VIII ASRLAR)……………………………………………………………………………..46

**9. Nafisa Hayotova**
БУХОРО ШАҲРИ МЕЪМОРИЙ МУҲИТИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР: СИЁСИЙ ҲОКИМИЯТ ВА МЕЪМОРИЙ УСЛУБ ЎРТАСИДАГИ БОҒЛИҚЛИК…………………………………...55

**10. Sevara Elmurodova**
O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHIDA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR MOHIYATI………64

**11. Ziyodulla Eshmirzayev**
TO‘G‘ONSIZ SUG‘ORISHDAN MUHANDISLIK NAZORATIGA: XORAZMVOHASI IRRIGATSIYA TIZIMIDAGI BURILISH (1946–1991-YILLAR)………………………………..75

**12. Аъзамжон Юсупов**
ФАРҒОНА ВОДИЙСИ ЖАДИДЛАРИНИНГ МАДАНИЙ-МАЪРИФИЙ ВА ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ФАОЛИЯТИ………………………………………………………………………81

JOURNAL OF LOOK TO THE PAST
ЎТМИШГА НАЗАР | ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ISSN: 2181-9599
www.tadqiqot.uz

**Ollabergan Arslanbekovich Allaberganov,**
Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
Ma’mun universiteti “Tarix” kafedrasi v.b. dotsenti.
E-mail: allaberganov_ollabergan@mail.ru
(UO‘K) 94(575.171):364“1945/1991”
https://orcid.org/0009-0002-8596-0926

# 1945–1960-YILLARDA XORAZM VILOYATI QISHLOQLARIDA MAKTABGACHA TARBIYA TIZIMIDAGI MUAMMO VA ZIDDIYATLAR

**For citation:** Ollabergan A. Allaberganov. PROBLEMS AND CONTRADICTIONS IN THE PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM IN THE VILLAGES OF KHOREZM REGION IN 1945–1960. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 8.

**http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.22009491**

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada muallif tomonidan 1945–1960-yillarda Xorazm viloyati qishloqlarida maktabgacha tarbiya tizimining tashkil etilishi, rivojlanishi, sohada amalga oshirilgan islohotlar hamda mavjud muammo va ziddiyatli holatlar tahlil qilinadi. Shuningdek, bu davrda bolalar bog‘chalari va yaslilarni tashkil qilishdan ko‘zlangan asosiy maqsad ya’ni ayollarni ishlab chiqarish va qishloq xo‘jaligi ishlariga keng jalb etish masalasi yoritilgan. Tadqiqotda viloyat qishloqlarida maktabgacha tarbiya muassasalarining yetarli emasligi, moddiy sharoitlarning qoniqarsizligi, malakali kadrlar yetishmasligi, bolalarni qamrab olish darajasining pastligi kabi muammo va ziddiyatli holatlar ilmiy nuqtai nazardan ko‘rib chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** O‘zbekiston SSR, Xorazm viloyati, qishloq, kolxoz, kolxozchilar, maktabgacha tarbiya, bolalar bog‘chasi, yasli, qishloq aholisi, ayollar mehnati, sovxoz, ta’lim tizimi, kadrlar muammosi, shikoyat va arizalar.

---

**Аллаберганов Оллаберган Арсланбекович,**
Доктор философии (PhD) по историческим наукам.
Исполняющий обязанности доцента кафедры
«История» Университета Маъмуна.
Электронная почта: allaberganov_ollabergan@mail.ru
**УДК:** 94(575.171):364«1945/1991»
ORCID: 0009-0002-8596-0926

# ПРОБЛЕМЫ И ПРОТИВОРЕЧИЯ В СИСТЕМЕ ДОШКОЛЬНОГО ВОСПИТАНИЯ В СЁЛАХ ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ В 1945–1960 ГОДАХ

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье анализируется процесс становления и развития системы дошкольного воспитания в сельской местности Хорезмской области в 1945–1960 годах, а также

проводимые в данной сфере реформы и существующие проблемные и противоречивые аспекты. Кроме того, освещается основная цель создания детских садов и яслей в этот период, а именно — широкое привлечение женщин к производственной деятельности и сельскохозяйственным работам. В исследовании с научной точки зрения рассмотрены такие проблемы и противоречия, как недостаточное количество дошкольных учреждений в сельской местности области, неудовлетворительное материально-техническое обеспечение, нехватка квалифицированных кадров и низкий уровень охвата детей.

**Ключевые слова:** Узбекская ССР, Хорезмская область, сельская местность, колхозы, колхозники, дошкольное образование, детские сады, ясли, сельское население, женский труд, совхозы, система образования, кадровая проблема, жалобы и заявления.

---

**Ollabergan A. Allaberganov,**
Doctor of Philosophy (PhD) in History.
Acting Associate Professor at the Department of History,
Ma'mun University.
E-mail: allaberganov_ollabergan@mail.ru
**UDC:** 94(575.171):364"1945/1991"
ORCID: 0009-0002-8596-0926

# PROBLEMS AND CONTRADICTIONS IN THE PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM IN THE VILLAGES OF KHOREZM REGION IN 1945–1960

**ABSTRACT**

This article analyzes the formation and development of the preschool education system in rural areas of the Khorezm region during 1945–1960, as well as the reforms implemented in this field and the existing problems and contradictions. It also highlights the primary objective of establishing kindergartens and nurseries in this period, namely, the broad involvement of women in industrial production and agricultural work. The study examines, from a scientific perspective, such issues and contradictions as the insufficient number of preschool institutions in rural areas, inadequate material and technical conditions, a shortage of qualified personnel, and the low level of child enrollment.

**Index Terms:** Uzbek SSR, Khorezm region, rural areas, collective farms, collective farmers, preschool education, kindergartens, nurseries, rural population, women's labor, state farms, education system, кадров shortage (personnel shortage), complaints and petitions.

---

**Kirish:**

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda sobiq Ittifoq hududlarida, jumladan O'zbekiston SSRning Xorazm viloyatida ijtimoiy-iqtisodiy hayotni tiklash jarayoni qishloq xo'jaligida mehnat resurslariga bo'lgan talabni keskin oshirdi. Ayniqsa, paxtachilikka ixtisoslashgan hududlarda xotin-qizlar asosiy ishlab chiqaruvchi kuch sifatida maydonga chiqdi. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha tarbiya muassasalari jumladan, bolalar bog'chalari va yaslilarni tashkil etish nafaqat ijtimoiy, balki iqtisodiy zarurat sifatida ham qaraldi.

1945–1960-yillarda maktabgacha tarbiya tizimini rivojlantirishning asosiy maqsadi yosh bolali ayollarni ishlab chiqarish jarayoniga keng jalb etish, ularning mehnat unumdorligini oshirish hamda qishloq xo'jaligida ishchi kuchi tanqisligini bartaraf etishdan iborat edi. Biroq ushbu tizimning shakllanish jarayoni murakkab va ziddiyatli kechdi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili:**

1945–1960-yillarda Xorazm viloyati qishloqlarida maktabgacha tarbiya tizimidagi muammo va ziddiyatlar alohida mavzu sifatida yetarli darajada o'rganilmagan. Sovet davriga oid "O'zbekiston SSR tarixi"[1], mustaqillik yillarida yaratilgan asarlar va tadqiqotlarda, jumladan, M.Matniyozovning "Xorazm tarixi"[2], Q.Rajabov mas'ul muharrirligida chop etilgan "O'zbekiston SSR rahbariyatining ijtimoiy va siyosiy faoliyati (1945–1983-yillar)" [3],

A.Mannopov, S.Mirzaahmedova muallifligida “75 mehru shafqat yillari” [4] nomli kitoblarda, 1945–1960-yillarda Xorazm viloyati qishloqlarida maktabgacha tarbiya tizimidagi muammo va ziddiyatlar qisman bayon qilingan. Shuningdek, ushbu mavzuni o‘rganishda arxiv hujjatlari, “Xorazm haqiqati” va “Qizil O‘zbekiston” gazetalari tadqiqotning manbaviy asosi bo‘lib xizmat qildi.

**Tadqiqot metodologiyasi:**

Maqolani tayyorlash jarayonida sinxron usul, qiyosiy-tarixiy usul, statistik tahlil hamda tarkibiy tahlil metodlaridan foydalanildi[5]. Bu usullar orqali 1945–1960-yillarda Xorazm viloyati qishloqlarida maktabgacha tarbiya tizimidagi muammo va ziddiyatlar tahlil qilindi.

**Tahlil va natijalar:**

Urushdan keyingi dastlabki yillarda butun respublikada bo‘lganidek, Xorazm viloyati qishloqlarida ham bolalar bog‘chalari va yaslilari tashkil qilina boshladi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad bu davrda qishloqlarda ishchi kuchini yetishmasligi natijasida ayollarni ishlab chiqarish va qishloq xo‘jalik sohalarida faolroq ishtirok etishini ta’minlash edi.

1945-yil holatiga ko‘ra, O‘zbekiston SSR bo‘yicha 23378 nafar bola doimiy bolalar bog‘chalariga jalb qilingan bo‘lsa-da[6], qishloq hududlarida maktabgacha tarbiya muassasalari tarmog‘i yetarli darajada rivojlanmagan edi. Xorazm viloyatida ham bu muammo o‘zining yaqqol ifodasini topdi. Bog‘cha va yaslilar asosan yirik qishloq markazlarida tashkil etilib, chekka hududlarda yashovchi aholining katta qismi ushbu xizmatlardan foydalana olmadi.

1945–1960-yillar oralig‘ida Xorazm viloyatida ham maktabgacha tarbiya muassasalarini soni ortib bordi. 1946-yildan boshlab viloyatda maktabgacha tarbiya muassasalarini tashkil etish bo‘yicha muayyan amaliy qadamlar tashlandi. Jumladan, Qo‘shko‘pir tumanida davlat rejalari asosida dastlabki bog‘cha va yaslilar faoliyat boshladi. “Orzu”, “O‘zbekyop” va “Farog‘at” nomli muassasalar tashkil etilishi ushbu yo‘nalishdagi dastlabki qadam bo‘lgan[7]. Xuddi shu yili Xonqa tumanida 9 ta bolalar bog‘chasi va 39 ta yasli faoliyat yo‘lga qo‘yilgan[8].

Ammo, mazkur davrda viloyat tarkibidagi bir qator tumanlarda va qishloqlarda maktabgacha tarbiya muassasalarini rivojlanishi notekis holatda kechdi. Xususan, Hazorasp tumanida qator kolxozlarda bog‘cha va yaslilar faqat nomigagina faoliyat yuritgan bo‘lib, 50 ga yaqin qishloqda esa bunday maktabgacha tarbiya muassasalar umuman mavjud emas edi[9]. Bu holat tizimni joriy etishda mahalliy boshqaruv organlari va xo‘jalik rahbariyatining sustkashligi bilan izohlanadi.

1947–1948-yillarda Xiva, Yangiariq, Mang‘it[10], Shovot va Xonqa tumanlarida maktabgacha tarbiya muassasalarining moddiy-texnik ta’minoti nihoyatda past darajada bo‘lgan. Ko‘plab bog‘cha va yaslilar moslashtirilgan binolarda joylashgan, zarur inventar va gigiyenik sharoitlar bilan ta’minlanmagan. Natijada, mavjud muassasalarning samaradorligi past bo‘lib, bolalarni qamrab olish darajasi cheklanganicha qolgan[11].

1949–1952-yillarga kelib tizimdagi muammolar yanada keskinlashdi. Ayrim kolxozlarda yosh bolali ayollar sonining ko‘pligiga qaramay, maktabgacha tarbiya muassasalari tashkil etilmagan. Bu esa ayollarning ishlab chiqarish faoliyatiga to‘laqonli jalb etilishiga to‘sqinlik qilgan. Achinarlisi, yosh bolali onalar bolalari bilan birga dala ishlariga chiqishga majbur etilgan. Bunday sharoitlar bolalar salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, kasalliklar va o‘lim holatlarining ortishiga sabab bo‘lgan.

Arxiv hujjatlari guvohlik berishicha, viloyatda 1950-yillarda maktabgacha tarbiya tizimini takomillashtirish bo‘yicha ma’lum choralar ko‘rilgan bo‘lsa-da, ular kompleks va tizimli xarakter kasb etmagan. Ko‘plab bog‘cha va yaslilar vaqtinchalik moslashtirilgan binolarda faoliyat yuritib, sanitariya-gigiyena talablariga javob bermagan. Bu esa tizimning sifat ko‘rsatkichlarini keskin pasaytirgan[12].

Achinarli tamoni shundaki,1960-yilga kelib ham viloyat hududidagi maktabgacha tarbiya muassasalaridagi muammolar o‘z yechimini topmagan. Arxiv hujjatlarida ko‘ra Gurlan tumanida 1120 nafar bolaning maktabgacha ta’lim muassasalariga jalb etilgani qayd etilgan bo‘lsa-da, mavjud infratuzilmaning talabga javob bermasligi onalar noroziligiga sabab bo‘lgan[13]. Bu holat maktabgacha ta’lim tizimi rivojida miqdoriy o‘sish sifat o‘zgarishlari bilan birga kechmaganini ko‘rsatadi.

1960-yillarning oʻrtalariga kelib tizimda yana bir ziddiyatli jihat yuzaga chiqdi. Ya’ni, koʻplab bogʻcha va yaslilar yil davomida emas, balki qishloq xoʻjaligi ishlari avj olgan mavsumlarda faoliyat yuritgan. Jumladan, 1966-yilda viloyatdagi maktabgacha tarbiya muassasalari asosan bahor, yoz va kuz fasllarida faoliyat yuritgan. Viloyat kolxozlarida 161 ta bolalar muassasasiga 6400 nafar bola qamrab olingan boʻlsa-da, tumanlardagi bogʻcha va yasli muassasalarining faoliyatini yetarli darajada nazorat qilmagan[14]. Bu esa mazkur muassasalarning ijtimoiy institut sifatidagi funksiyasidan koʻra, iqtisodiy ehtiyojlarga moslashganligini anglatadi.

**Xulosa**:

Xulosa oʻrnida shuni ta’kidlash joizki, 1945–1960-yillarda Xorazm viloyati qishloqlarida maktabgacha tarbiya tizimi shakllanish bosqichida boʻlib, uning rivoji bir qator ichki ziddiyatlar bilan kechgan. Bir tomondan, davlat siyosati doirasida ayollarni ishlab chiqarishga jalb etish maqsadida mazkur tizim kengaytirilgan boʻlsa, ikkinchi tomondan, moddiy-texnik bazaning zaifligi, hududiy nomutanosiblik, boshqaruvdagi kamchiliklar hamda ijtimoiy infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi tizim samaradorligini cheklab qoʻygan. Natijada maktabgacha tarbiya muassasalari oʻzining asosiy – bolalarni har tomonlama rivojlantirish va ijtimoiy himoya qilish vazifasini toʻliq amalga oshira olmagan.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Ўзбекистон ССР тарихи. 4-жилд. –Тошкент: “Фан”, 1971. 217-218-б.
2. Матниёзов М. Хоразм тарихи.2-жилд. –Урганч, 1997. 173-б.
3. Ражабов Қ. Ўзбекистон ССР раҳбариятининг ижтимоий ва сиёсий фаолияти (1945 - 1983 йиллар). –Тошкент: “Фан”, 2020.
4. Маннопов А, Мирзааҳмедова С. 75 меҳру шафқат йиллари. –Тошкент: “Адолат”, 1994. 5-6-б.
5. Шадманова С. Тарих тадқиқотларининг методологияси ва замонавий усуллари. –Тошкент: “Баркамол файз медиа”, 2018. 70-б.
6. Оналар ҳақида давлат ғамхўрлиги // “Қизил Ўзбекистон”, 1945-йил 8-март.
7. Матназаров Х., Курёзов Ш. Оқдарбанд тарихи. –Урганч, 2011. 64-б.
8. Xonqa tuman davlat arxivi. 205 - fond,1-roʻyxat, 25-yigʻma jild. 37-varaq.
9. Ҳазораспда болалар боғчалари ва яслилар эътибордан четда // “Хоразм ҳақиқати”, 1946-йил 27-июл.
10. Вилоят колхозларидаги болалар муассасаларининг ахволини яхшилаш ва янгиларни ташкил қилиш тўғрисида // “Хоразм ҳақиқати”, 1947-йил 6-июн.
11. Хонқада боғча ва яслалар ишига эътиборсиз қаралмоқда // “Хоразм ҳақиқати”, 1948-йил 20-октябр.
12. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Kanselyariyasi arxivining Xorazm viloyat boʻlimi. Xorazm viloyat hokimligi arxivi. 1-fond, 1-roʻyxat, 121-yigʻma jild. 31-varaq.
13. Yangibozor tuman davlat arxivi. 116-fond, 1-roʻyxat, 172-yigʻma jild. 105-106-varaqlar.
14. Ташаббускорлик ва талабчанликни оширайлик // “Хоразм ҳақиқати”, 1966-йил 29-март.

Tadqiqot.uz

ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

## ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
## LOOK TO THE PAST

**Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz**
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz**
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000